

«Internet 60» tarif rejasi!

Narxlash

| | |
|-------------------------------|-------------|
| Abonent to'lovi, oyiga | 60 000 so'm |
| Internet-trafik limiti, oyiga | 30 GB |

| | |
|--|---------|
| Yo'nalishlar bo'yicha narxlash: | |
| 1 MB internet narxi (abonent to'lovi yechilmaganida) | 25 so'm |

Mazkur tarif rejasida ovozli aloqa va chiquvchi SMSlar mavjud emas.

Limitlar qoldig'ini tekshirish: *100# - internet-trafik MBlari.

Tarif rejasi yangi ulanishlar va o'tishlar uchun ochiq

Tarifga o'tish: *120#

«Internet 60» tarif rejasidan «Sof 70», «Sof 100», «Sof 150» tarif rejalariga o'tish narxi - **0 so'm.**

«Internet 60» tarif rejasidan «Sof 18», «Sof 30», «Sof 40», «Sof 50» tarif rejalariga o'tish narxi - **2105 so'm.**

Prepaid tizimidagi qolgan tarif rejalaridan «Internet 60» tarif rejasiga o'tish narxi - **0 so'm.**

Tarif rejasini almashtirish faqat Faol holatda mumkin bo'ladi.

Ma'lumot

1. Tarif rejasi yangi ulanishlar hamda Prepaid tizimi abonentlari o'tishlari uchun ochiq.
2. Oylik abonent to'lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:
 - Abonentning tarif rejasiga ulanish/o'tish sanasi oylik davrda oylik abonent to'lovining yechilish sanasi hisoblanadi.
 - Tarif rejasiga yangi ulanishda/o'tishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablag' bo'lsa, oylik abonent to'lovi va trafik to'liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.
 - Hisob manfiy holatda bo'lsa yoki unda tarif bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilishi uchun mablag' yetarli bo'lmasa, u holda abonent to'lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limit belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.
- Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo'lgan davrda (yechilish vaqti qat'iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag' bo'lishi kerak.
- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmagunicha abonent to'lovi yechilmaydi.
- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi **darhol** yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq trafik belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab bir oylik oraliqda amalga oshadi.

3. Bloklanish shartlari:

- Raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag' bo'lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo'shimcha xizmatlar ulangan bo'lsa bloklanadi;
- Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi;
- Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan oylik internet-to'plamlar limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa);
- Bloklangan holatda bo'lishning umumiy shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin.

4. Tarif rejasi doirasidagi oylik trafik joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Tarif rejasi doirasida taqdim etilgan oylik trafikning amal qilish muddati belgilangan vaqtdan boshlab 1 oyni tashkil etadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha trafik belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.
- Tarif rejasi va qo'shimcha internet-to'plamlar doirasidagi oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishga tushirish uchun havolalik SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi:

- Tarif bo'yicha trafik yangilash («Restart» xizmatini faollashtirish);
- Internet-to'plam xarid qilish;
- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish*

* Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

«1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor qiling:

- «Internet 60» tarif rejasidan «Sof 70», «Sof 100» hamda «Sof 150» tarif rejalariga o'tishda, oldingi tarif rejasiga muvofiq belgilangan limitlar yangilariga qo'shiladi va toki sarflab tugatilguniga qadar yoki ularning oldingi tarif rejasiga ko'ra amal qilish muddati tugaguniga qadar ulardan foydalanish mumkin bo'ladi.

- «Internet 60» tarif rejasidan «Start 10», «Ovoz 15», «Sof 18», «Sof 30», «Sof 40» hamda «Sof 50» tarif rejalariga o'tishda trafik bekor qilinadi. Boshqa tarif rejalaridan «Sof» tariflar tizimiga, «Start 10», «Ovoz 15» va «Internet 60» tarif rejalariga o'tilsa oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

- Boshqa tarif rejalaridan «Sof» tariflar tizimiga, «Start 10», «Ovoz 15» va «Internet 60» tarif rejalariga o'tilsa oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

5. «Internet 60» tarif rejasi abonentlari uchun «Qadrdonlar!» hamda «U+» sodiqlik dasturlari amal qiladi.

6. Tarif rejasi doirasida taqdim etilgan trafik roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

7. «Internet 60» tarif rejasi abonentlari uchun «Sizga qo'ng'iroq qilishdi», «Raqamni saqlab qolish», Oylik internet-to'plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to'plami), «Internet-sovg'a» xizmatlari, «Al Chiroq» aksiyasi doirasidagi internet to'plamlari amal qiladi.

8. «Internet 60» tarif rejasi abonentlari uchun «Navbatsiz», «Tungi internet», «Soatbay internet», Kunlik hamda Oylik SMS-to'plamlar» shuningdek, «Qadrdonlar!» sodiqlik dasturi doirasidagi «Kunlik SMS-to'plamlar», «Roumingdagi SMS-to'plamlar», «Xalqaro SMS-to'plamlar», «Maksimal internet» xizmatlari, «Buyurtma to'plam», «Tarmoq ichida qulay», «Qulay daqiqalar» hamda «O'zbekiston bo'yicha qulay» to'plamlari, Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, «Al Chiroq» aksiyasi doirasidagi bonus daqiqalar va SMS to'plamlari amal qilmaydi.

9. «Internet 60» tarif rejasi abonentlari uchun «Sof» tizimidagi tariflardan hamda «Start 10», «Ovoz 15» tarif rejalaridan boshqa Prepaid tizimidagi ochiq tarif rejalariga o'tish imkoni yo'q.

10. Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi va 4G tarmog'ining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.

«Restart» xizmati

«Restart» xizmati – oylik abonent to'lovining yechilishini mustaqil tarzda tashkillashtirish hamda amaldagi tarif rejasi bo'yicha trafikni olish imkoniyatidir.

1. «Restart» xizmati *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.

2. «Restart» xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.

3. «Restart» xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik trafikni olish imkonini taqdim etadi. «Restart» xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.

4. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limit belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi

5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda trafik belgilanadi.

6. «Restart» xizmati muvaffaqiyatli faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan trafik qoldirlari bekor qilinadi.

7. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida «Restart» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.

8. «Restart» xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha)

foydalanish mumkin.